ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6/2-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24557685

Ma’naviy yuksalish jarayonida axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslari

Raximov Alisher Sharofidinovich –
Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: raximovalisher1980@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-4925-083X

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalish jarayonida axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Mafkuraviy vakuum, millatchilik, ekstremizm, terrorizm va «ommaviy madaniyat» kabi tahdid omillari tizimlashtirilib, ularning ko‘pmillatli jamiyat barqarorligiga ta’siri ochib berilgan. G‘oyaviy birdamlik, ijtimoiy hamkorlik va milliy birlashuv g‘oyasi vatanparvarlikni shakllantirishning hamda yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetning asosi sifatida asoslangan. Yangi g‘oyaviy konsepsiyaga qo‘yiladigan talablar va oila, maktab, mahalla hamkorligiga tayanuvchi tarbiyaviy yo‘nalishlar belgilab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot-mafkuraviy tahdid, vatanparvarlik, yoshlar, g‘oyaviy birdamlik, ma’naviy yuksalish, ijtimoiy hamkorlik, millatchilik, ekstremizm, ma’naviy immunitet.*

Социально-философские основы воспитания патриотизма у молодёжи в противодействии информационно-идеологическим угрозам в процессе духовного возвышения

Аннотация. *В статье рассматриваются социально-философские основы воспитания патриотизма у молодёжи в условиях информационно-идеологических угроз в процессе духовного подъёма Нового Узбекистана. Систематизированы такие факторы угроз, как идеологический вакуум, национализм, экстремизм, терроризм и «массовая культура», раскрыто их влияние на стабильность многонационального общества. Идейное единство, социальное партнёрство и идея национального сплочения обоснованы как основа формирования патриотизма и духовного иммунитета к чуждым идеям. Определены требования к новой идейной концепции и воспитательные направления, опирающиеся на сотрудничество семьи, школы и махалли.*

Ключевые слова: *информационно-идеологическая угроза, патриотизм, молодёжь, идейное единство, духовный подъём, социальное партнёрство, национализм, экстремизм, духовный иммунитет.*

Raximov Alisher Sharofidinovich

Socio-philosophical foundations of fostering patriotism among youth in countering informational and ideological threats in the process of spiritual development

Annotation. *The article examines the socio-philosophical foundations of fostering patriotism among young people against information and ideological threats in the process of the spiritual advancement of New Uzbekistan. Threat factors such as an ideological vacuum, nationalism, extremism, terrorism and "mass culture" are systematised, and their impact on the stability of a multinational society is revealed. Ideological solidarity, social partnership and the idea of national unity are substantiated as the basis for developing patriotism and spiritual immunity to alien ideas. The requirements for a new ideological concept and educational directions based on the cooperation of the family, school and mahalla (neighbourhood community) are defined.*

Keywords: *information and ideological threat, patriotism, youth, ideological solidarity, spiritual advancement, social partnership, nationalism, extremism, spiritual immunity.*

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, integratsion aloqalarning chuqurlashuvi «milliy chegaralar»ni yuvib yubormoqda, natijada davlatlarning ichki barqarorligi, milliy birligi va g'oyaviy birdamligi yangi xavflar ostida qolmoqda. Tadqiqotchilar jarayon sur'atlarining sifat jihatidan yangi darajasini ifodalash uchun «giperglobalizatsiya» atamasini qo'llamoqda [1, 47-b]. Bunday sharoitda axborot makonida tarqalayotgan buzg'unchi g'oyalar, avvalo, ongi va dunyoqarashi hali to'la shakllanib ulgurmagan yoshlarga ta'sir ko'rsatadi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mafkura sohasida bo'shliq hech qachon bo'lmaydi, chunki insonning qalbi va ongi axborot olishdan, fikrlashdan to'xtamaydi, demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak [2, 484-b]. Agar jamiyatda ma'naviy ozuqa bo'lmasa yoki u sust bo'lsa, bo'shliqni begona va zararli g'oyalar to'ldiradi. «Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans» g'oyasi va "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori bilan belgilangan vazifalar [3] yoshlarda mustahkam e'tiqod, daxldorlik va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishni dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammoga aylantirmoqda. Muammoning mohiyati shundaki, axborot-mafkuraviy tahdidlar (millatchilik, ekstremizm, terrorizm, «ommaviy madaniyat» va boshqalar) o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi: ular ijtimoiy birlik va ma'naviy maqsadlar mavjud bo'lmagan joyda hosil bo'ladigan mafkuraviy vakuum zaminida kuchayadi. Shu bois tahdidlarga qarshi kurashni ularni «taqiqlash» bilan emas, balki yoshlarda vatanparvarlikka asoslangan ichki ma'naviy immunitetni shakllantirish orqali ta'minlash masalasi ilmiy tahlilni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi – Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) axborot-mafkuraviy tahdidlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish;

2) ko'pmillatli jamiyatda millatchilik va ekstremizm xavfining mohiyatini ochib berish;

3) g'oyaviy birdamlik va ijtimoiy hamkorlikning tahdidlarga qarshi kurashdagi o'rnini asoslash;

4) yangi g'oyaviy konsepsiyaga qo'yiladigan talablarni va yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlarini belgilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzu bo‘yicha manbalar bir necha guruhga bo‘linadi. *Birinchisi* davlat siyosatini belgilovchi hujjatlar va Prezident asarlari. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash va yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash vazifalari belgilangan [3]. Prezident asarlarida mafkura «fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi» sifatida talqin etilib [4], millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekani ta’kidlanadi [2, 46–47, 138-b].

Ikkinchi guruh ko‘pmillatli jamiyatdagi millatlararo munosabatlar va ijtimoiy hamkorlikka oid tadqiqotlar. B. Boboyorov millatchilik terrorizmini millat yoki etnoslar huquqlarining kamsitilishiga qarshi kurashning noadekvat shakli sifatida baholab, uning siyosiy maqsadlarini ko‘rsatadi [5, 113-b]. M.Quronov ijtimoiy hamkorlikni tinchlik va barqarorlikning muhim omili deb hisoblab, uning yo‘lidagi eng xatarli to‘siqlar sifatida aqidaparastlik, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, mahalliychilik, tajovuzkor millatchilik va shovinizmni sanaydi [6, 21-b].

Uchinchi guruh globallashuv va millat muammosiga bag‘ishlangan ishlardan iborat. S.Otamuratov asarida g‘oyani baholashda uning yo‘nalishi, maqsadi va kimlarga qaratilganligi asosiy mezon sifatida ko‘rsatiladi [7, 60-b]; shuningdek, globallashuv sharoitida insonlararo munosabatlarda hamdardlik va hamkorlik qadriyatlariga putur yetayotganini, begonalashuv kuchayayotganini qayd etadi [8, 100-b]. D.Held va hammualliflar esa transmilliy jinoiy va terroristik tashkilotlarning global kengayishini tahlil qiladi [9].

To‘rtinchi guruh vatanparvarlikning g‘oyaviy-axloqiy asoslariga oid qarashlar bo‘lib, E.Yusupov vatanparvarlik muayyan milliy madaniyat, mafkura va e’tiqodlar asosida shakllanishini ta’kidlaydi [10, 156-b], Arasto esa adolatni eng yaxshi fazilat deb biladi [11, 143-b].

Tahlil qilingan ishlarda tahdid omillari, milliy g‘oya va vatanparvarlik asosan alohida-alohida ko‘rib chiqilgan; ularni yagona ijtimoiy-falsafiy tizimda – “mafkuraviy vakuum → tahdid omillari → g‘oyaviy birdamlik → vatanparvarlik va ma’naviy immunitet” zanjiri sifatida talqin etish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy-tarixiy tahlil (rangli inqiloblar va «Arab bahori» misollarida), me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish hamda tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyilidan foydalanildi. Manba bazasini Prezident asarlari, strategik hujjat, monografiya va dissertatsiyalar tashkil etdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mafkuraviy vakuum va axborot-mafkuraviy tahdid omillari tizimi. Jamiyatda ijtimoiy birlikning yo‘qligi va ma’naviy yuksalish maqsadlarining mavjud emasligi mafkuraviy vakuumni hosil qiladi; natijada vatanparvarlik, burch, baynalmilallik, axloq kabi ijtimoiy hayotni mustahkamlovchi asoslar yemiriladi, ekstremizm, millatchilik va terrorizmni vujudga keltiruvchi omillar qayta tiklanadi. Bunday determinantlarga jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi, siyosiy kurashning keskinlashuvi, ishsizlik va fuqarolarning ijtimoiy himoyalanmaganligi, huquqiy nigilizm va separatizm tendensiyalarining kuchayishi, qonunchilikdagi kamchiliklar kiradi. Mavjud omillar monografiya materiallari asosida 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarni keltirib chiqaruvchi omillar guruhlari

Omillar guruhi	Asosiy ko‘rinishlari

Ijtimoiy-iqtisodiy	Ijtimoiy tabaqalanish, ishsizlikning o‘sishi, fuqarolarning ijtimoiy himoyalanmaganligi, ijtimoiy adolatning ta’minlanmasligi
Huquqiy-siyosiy	Huquqiy nigilizm, separatizm tendensiyalari, qonunchilikdagi kamchiliklar, siyosiy kurashning keskinlashuvi, korrupsiya va xalq bilan hokimiyat o‘rtasidagi ishonchsizlik
G‘oyaviy-madaniy	Mafkuraviy vakuum, «ommaviy madaniyat», individualizm, egoizm, nigilizm, dogmatizm, shovinizm, eskapizm, daunshifting
Ekstremistik-terroristik	Aqidaparastlik, diniy ekstremizm, millatchilik terrorizmi, transmilliy jinoiy tuzilmalar, yoshlarni soxta aldovlar orqali jalb etish

Muhimi, bu omillar o‘zaro bog‘liq: iqtisodiy va ijtimoiy muammolar g‘oyaviy bo‘shliq bilan birlashganda yoshlar zararli oqimlar ta’siriga ko‘proq tushadi. Prezident ta’kidlaganidek, «bitta ishsiz odam – o‘nta muammo» ekanligini, ya’ni ishsizlikning shaxsning o‘ziga, oilasi, mahallasi va jamiyatga keltiradigan zararini hisobga olish zarur [12, 200-b.]. Demak, mafkuraviy profilaktika ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan uyg‘un amalga oshirilishi kerak.

Ko‘pmillatli jamiyatda millatchilik va ekstremizm xavfi. Ko‘pmillatli mamlakat uchun g‘oyaviy parokandalik va bo‘shliq asosida paydo bo‘ladigan eng jiddiy xavflardan biri – millatchilik terrorizmi. B. Boboyorovning fikricha, u siyosiy maqsadlar, jumladan, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darish yoki milliy davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishni majburlash yo‘li bilan o‘zgartirishga qaratilgan [5, 113-b.]. Millatchilikni ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi kuchli determinant sifatida qo‘llash uning ta’sir doirasini kengaytiradi va hatto xorijdagi diasporalarning ishtirokini jalb etib, bir davlat chegarasidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashaydi, millatlararo totuvlikni ta’minlashda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o‘rni katta [2, 47-b.]. Shu sababli «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» konsepsiyasini amalga oshirishda titul millat manfaatlariga bir tomonlama urg‘u berish ikki xavfli oqibatga olib kelishi mumkin: bir tomondan, aholida ijtimoiy muhit va ijtimoiy birlashuvga ishonmaslik kayfiyati o‘sadi, ikkinchi tomondan, millatchilik va diniy-ekstremistik kayfiyatdagi guruhlar faollashadi. Shuning uchun g‘oyaviy birlashuv har bir millatning o‘z milliyligi asosida yashash huquqini e’tirof etgan holda, ularni yagona umumfuqarolik g‘oyasi atrofida birlashtirishga tayanishi lozim. Davlat qabul qiladigan har bir hujjat va qaror ijtimoiy munosabatlarga ta’siri jihatidan o‘ziga xos ekspertizadan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Mafkuraviy tahdid milliy va diniy negizda nizo keltirib chiqarish, millat va dinlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, totuvlik va barqarorlikni izdan chiqarish shaklida namoyon bo‘ladi; amaliy tahdid esa uyushgan jinoyatchilik, qurolli qo‘zg‘olon, fuqarolar urushi hamda davlat to‘ntarishi darajasigacha borishi mumkin. Terrorizmni ozodlik harakati bilan tenglashtirib bo‘lmaydi: ozodlik harakati faqat yalpi adolatsizlik va zulm sharoitida paydo bo‘ladi, terrorizm esa adolat bor joyda ham, yo‘q joyda ham paydo bo‘lishi mumkin.

G‘oyaviy birdamlik va ijtimoiy hamkorlik – tahdidlarga qarshi omil. Ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik, barqarorlik va yuksak taraqqiyotni ta’minlovchi omil; u bo‘lmagan jamiyatda boshboshdoqlik, turli millat va elat vakillari o‘rtasida ishonchsizlik, qarama-qarshilik kuchayadi va bu og‘ir inqirozga olib kelishi mumkin [6, 21-b]. Maqsadlar mushtarakligi ijtimoiy hamkorlikni, ijtimoiy hamkorlik esa jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Ijtimoiy mushtaraklik qonun oldida tenglik, erkin tanlash va o‘z irodasini erkin ifodalash huquqi, manfaatlarni himoya qilish va ijtimoiy adolat kabi tamoyillarga tayanadi; ularga rioya etilishi Konstitutsiya va qonunlarga mos barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyot kafolatlari sifatida qaraladi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik va gumanizm g‘oyasi bo‘ladi; mafkura avvalo fikr tarbiyasi,

milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasidir [4]. Mamlakatda o'zaro do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, millati va dinidan qat'i nazar barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash ustuvor, ular o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga esa yo'l qo'yilmaydi [2, 138-b]. Bunday birdamlik odamlar ongida tushuncha shaklidagina emas, real amaliyotda namoyon bo'lgandagina jamiyatni tashqi nosog'lom ma'naviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi. Biroq jamiyatni yagona g'oyaga ishontirish murakkab vazifa. Hech bir inson o'z manfaatlari qamrab olinmagan g'oyaga ishonmaydi, shu bois g'oyaviy birlashuv real maqsadlarga, odamlarning manfaatlari va ijtimoiy adolatga tayanishi shart. Tahlil shuni ko'rsatadiki, avvalgi milliy istiqlol mafkurasi jamiyatni yetarli darajada birlashtira olmadi; sabablardan biri uning balandparvoz shiorlarga tayanib, hayotda amaliy aksini ko'rsata olmaganidir. Bu esa yangi g'oyaviy konsepsiya shiorbozlikdan emas, real ijtimoiy tajribadan kelib chiqishi lozimligini ko'rsatadi.

Global kontekst: giperglobalizatsiya, "yumshoq kuch" texnologiyalari va "ommaviy madaniyat". Hozirgi dunyoda barcha mintaqalar yagona axborot maydonining tarkibiy qismiga aylanmoqda; tadqiqotchilar «global qishloq» va «tizimga birlashgan jamiyat» tushunchalaridan foydalanmoqda. Bunday sharoitda kichik va rivojlanayotgan davlatlarning kuchli madaniyatlar tomonidan «yutilib yuborilish» xavfi ortadi, shu sababli jamiyatlar uchun tarqoqlik emas, g'oyaviy birlashuvga ehtiyoj kuchayadi. Ayrim mafkura mutaxassislari 2003-yildan boshlab kuzatilgan rangli inqiloblarni (Gruziya — 2003, Ukraina – 2004, Qirg'iziston – 2005) «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostidagi uzoqni ko'zlagan siyosatning, shuningdek «boshqariluvchi xaos», «axborot urushi», «psixologik urush», «yumshoq kuch» (soft power) texnologiyalarining ko'rinishi sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, tahlil bunday voqealarning, shuningdek 2010-yildan boshlangan «Arab bahori»ning ichki sabablarini ham ko'rsatadi: boshqaruvda ijtimoiy adolatning ta'minlanmasligi, xalq va hukumat o'rtasidagi ishonchsizlik, korrupsion munosabatlar hamda yagona g'oya atrofida birlashmaslik jamiyatlarda parokandalikni keltirib chiqaradi. Demak, tashqi ta'sirlarga qarshi turishning asosiy sharti ichki barqarorlik – adolatli boshqaruv, qonun ustuvorligi va aholi farovonligi bilan birga g'oyaviy birdamlikdir. Terrorizm va diniy ekstremizm ham g'oyaviy birlashuvning sustligi va milliy birdamlikning darz ketishi bilan kuchayadi. Ekspertlar baholashicha, transmilliy jinoyatchi tashkilotlarning yillik noqonuniy savdo aylanmasi 300 mlrd. dollardan oshgan [9].

Madaniy sohada tahdid «ommaviy madaniyat» ko'rinishida namoyon bo'ladi: u asta-sekin millatning qadriyatlari, kiyinish, yashash, muomala va oziqlanish madaniyati kabi tuzilmalarni o'zgartirib, ijtimoiy tartibsizlik va beqarorlikni hosil qiladi. Individualizm, egoizm, egotsentrizm, pessimizm, nigilizm, dogmatizm, shovinizm, eskapizm, daunshifting singari oqimlar g'oyaviy birdamlikka tahdid solib, ichki qarama-qarshiliklarni avj oldiradi va milliy qadriyatlarni qadrsizlantiradi. Insonlararo munosabatlarda o'zaro hurmat, hamdardlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarning zaiflashuvi esa insonning o'zligidan begonalashuvini kuchaytiradi [8, 100-b.].

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Axborot-mafkuraviy tahdidlar mafkuraviy vakuum, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy, g'oyaviy-madaniy hamda ekstremistik-terroristik omillarning o'zaro ta'siri natijasida kuchayadi; shu bois ularga qarshi kurash kompleks, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan uyg'un bo'lishi lozim.

2) Ko'pmillatli O'zbekiston uchun salbiy yo'nalishdagi millatchilik va ekstremizm asosiy ichki tahdidlardan biri hisoblanadi; milliy yuksalish siyosati bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va umumfuqarolik birligiga tayanishi shart.

3) G‘oyaviy birdamlik va ijtimoiy hamkorlik jamiyatni tashqi nosog‘lom ma’naviy ta’sirlardan himoya qiluvchi asosiy omil bo‘lib, u real manfaatlar, ijtimoiy adolat va amaliy tajribaga tayanganda ishonchli bo‘ladi.

4) Vatanparvarlik yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi markaziy axloqiy-ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

5) Yangi g‘oyaviy konsepsiya milliy o‘zlikni, umuminsoniy qadriyatlarni, vatanparvarlik va sadoqat ruhini qamrab olishi hamda o‘tmish, bugun va kelajakni bog‘lashi kerak.

6) Amaliy jihatdan oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash, ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik tarbiyasiga oid ijtimoiy rukn va roliklarni ko‘paytirish hamda ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Safoyev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: JIDU, 2005.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5841063
4. Mirziyoyev Sh. Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi (ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutq, 2021-yil 19-yanvar) // Xalq so‘zi, 2021.
5. Boboyorov B. Jamiyat demokratlashuvida millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili: Falsafa fanlari bo‘yicha dissertatsiya. – Toshkent: O‘zMU.
6. Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.
7. Otamuratov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
8. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
9. Held D., McGrew A., Goldblatt D., Perraton J. Global Transformations: Politics, Economics and Culture. – Oxford, 2009. – P. 58.
10. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998.
11. Arasto. Axloqi kabir. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.